Gender-huquqiy ekspertizada

xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati



O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi[1] qonuniga asosan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlarini ta’minlash tamoyillariga muvofiqligi yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini tahlil qilishni nazarda tutuvchi gender-huquqiy ekspertiza joriy etilgan.

[1] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/562/3681-son.



Ushbu ekspertiza tegishli faoliyat yoʻnalishlari boʻyicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Ekspertizadan oʻtgan normativ-huquqiy hujjatlarning gender tengligi tamoyillariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi toʻgʻrisidagi tahliliy ma'lumotlarni oʻz ichiga olgan xulosalar Adliya vazirligiga taqdim etiladi.

Oʻz navbatida, Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertiza doirasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi oʻrniga ehtimoliy ta'siri nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinmoqda. Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi ushbu yoʻnalishga bevosita mas'ul hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, 2019 – 2021-yillarda xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlashning huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslari yaratildi. Jumladan, Prezidentning 2020-yil 2-iyundagi 6003-farmoniga muvofiq Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlash boʻyicha respublika kengashi tashkil etildi.

Oʻzbekiston uchun ustuvor boʻlgan 19 ta xalqaro reyting va indekslar roʻyxati tuzilib, kengashning ikki ishchi organi – Moliya vazirligi va Adliya vazirligi oʻrtasida taqsimlandi.



Prezidentning 2022-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish, shuningdek, ayrim hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq **Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” indeksi** O‘zbekiston uchun ustuvor xalqaro reyting va indekslar ro‘yxatiga kiritildi. Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi mamlakatimizning ushbu indeksdagi mavqeyini oshirish uchun bevosita mas’ul etib belgilandi.

Adliya vazirligi siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini oshirish bo‘yicha tizimli va izchil choralar ko‘rish borasida quyidagilarni amalga oshirib kelmoqda:

– siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasiga berilgan baholarni tahlil qilish;

– davlat organlari va tashkilotlari, tadqiqot institutlari tomonidan siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimizga berilgan baholarga sabab bo‘lgan omillar va muammolarning kompleks o‘rganilishini va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish, uslubiy rahbarlik va monitoringni amalga oshirish;

– siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslar doirasida baholanadigan yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni reyting va indekslar metodologiyasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining ulardagi o‘rniga ehtimoliy ta’siri nuqtayi nazaridan baholash.

Ushbu amaliyot, umuman olganda, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish talablariga muvofiq hisoblanadi[2]. Xususan, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda ishlab chiquvchi tashkilot xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalarini hisobga oladi, shuningdek, boshqa davlatlardagi huquqiy tartibga solish tajribasini o‘rganadi.

Shu nuqtayi nazardan, gender tengligi sohasidagi xalqaro reyting va indekslar ko‘rsatkichlari o‘rganilayotgan sohada xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini yo‘lga qo‘yishda qo‘l kelishi mumkin.

Masalan, **Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” indeksining metodologiyasi** ayollarning iqtisodiy imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan normativlar to‘g‘risida ma‘lumot olish imkonini yaratadi.

Mazkur indeks iqtisodiy imkoniyatlar va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish sohasini tadqiqot qilish, shuningdek, hamma uchun iqtisodiy imkoniyatlarni ta’minlashga urg‘u beradi va erishilgan yutuqlarni namoyish etadi.

Asosiy xalqaro reytinglar va indekslarda gender tarkibiy qismining majburiy bo‘lishi ushbu masalani milliy gender siyosatida hisobga olishni taqozo qiladi.

Jumladan, Jahon bankining “Boshqaruv sifati” reytingi “Zo‘ravonlikning yo‘qligi” ko‘rsatkichini taqdim etadi. “Huquq ustuvorligi indeksi”ning asosiy huquqlarni himoya qilish” indikatori esa “Diskriminatsiyaning mavjud emasligi” subindikatorini o‘z ichiga oladi. Dunyo mamlakatlari demokratiyasi indeksi “Parlamentdagi ayollarning ulushi” subindikatorini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, Jahon banki har yili 190 ta mamlakatda ayollarning iqtisodiy hayotdagi ishtirokiga ta’sir ko‘rsatadigan 8 ta sohadagi qonunlar va qoidalarning ta’sirini baholaydigan “Ayollar, biznes va qonun” indeksini shakllantiradi.

Gender tengligi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biridir. Shu munosabat bilan Gender indeksi saqlanib qolmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlari 17 maqsad bo‘yicha umumiy 56 ta asosiy indikatorni qamraydi. Har bir maqsad uchtadan beshtagacha gender indikatorini o‘z ichiga oladi. Indeks 144 ta mamlakat ma’lumotlariga asoslangan bo‘lib, dunyodagi barcha xotin-qizlarning 98 foizini qamrab oladi.

[2] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

Umuman olganda, gender mavzusi bo‘yicha quyidagi asosiy xalqaro reytinglar va indekslar tuziladi:

Gender ko‘rsatkichlarining minimal to‘plami *(Minimum Set of Gender Indicators)*[3] gender statistikasi bo‘yicha xalqaro ma’lumotlarni to‘plash uchun uslubiy qo‘llanma sifatida ekspert guruhlari tomonidan tuziladi.

Minimal to‘plam umumiy 54 ta indikatorni o‘z ichiga oladi, ulardan 11 tasi sog‘liqni saqlash masalalari bilan bog‘liq va aksariyati Barqaror rivojlanish maqsadlari ko‘rsatkichlaridir. Ular gender tafovutlari va tamaki iste’moli, semirish, OITS va yurak-qon tomiri kasalliklari, saraton, diabet yoki nafas bilan bog‘liq surunkali kasalliklardan o‘lim darajasi kabi masalalarni eng aniq ko‘rsatadigan sohalarga ishora qiladi.

BMT Taraqqiyot dasturining Gender tengsizligi indeksi (Gender Inequality Index)[4] 3 ta o‘lchovdan foydalangan holda gender tengsizligi darajasini o‘lchaydi:

- **reproduktiv salomatlik;**
- **imkoniyatlarni kengaytirish;**
- **mehnat bozori.**

Inson taraqqiyoti indeksi[5] *(Human Development Index)* rivojlanishning asosiy mezoni sifatida mamlakatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga va odamlar uchun yaratilgan imkoniyatlarga e’tibor qaratadi.

Ijtimoiy institutlar va gender indeksi[6] *(Social Institutions and Gender Index, SIGI)* mamlakatlarning gender tengsizligini bartaraf etishini baholaydi. Indeksda quyidagi subindikatorlar mavjud:

1) oiladagi ayollarni kamsitish;

2) jismoniy daxlsizlik cheklanganligi;

3) ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi;

4) ayollarning fuqarolik erkinliklari cheklanganligi.

Global gender tafovuti indeksi[7] *(The global gender gap Index)* gender tengligining hozirgi holati va evolyutsiyasini 4 ta asosiy parametr, ya’ni, iqtisodiy hayot va imkoniyatlar, ta’lim darajasi, sog‘liq va umr davomiyligi hamda siyosiy imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha baholaydi. 2006-yilda tashkil etilganidan buyon ushbu indeks shu paytgacha gender tengsizlikni bartaraf etishdagi yutuqlarni tahlil qiluvchi katta tajribaga ega indekslardan biri hisoblanadi. 2022-yilgi hisobotga ko‘ra, gender tengligi hamon to‘liq ta’minlanmagan va global gender tafovutini bartaraf etish uchun yana 132 yil kerak bo‘lar ekan.

Yuqoridagi xalqaro reyting va indekslar gender siyosatini olib borishda qo‘shimcha qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa ayrim sohalarni isloh qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish uchun tomonlarning zaif jihatlarini va muammolarini aniqlashga imkon beradi.

Masalan, ilgari O‘zbekistonning tegishli reytinglardagi pozitsiyalarini tahlil qilish natijasida ko‘chmas mulkka egalik huquqini ta’minlash sohasida muammolar mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammoni hal qilish uchun Adliya vazirligi tomonidan “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

O‘zbekiston uchun xalqaro reyting va indekslar muammolarga xalqaro maydondan boshqa ko‘z bilan qarash, xato va kamchiliklarni bartaraf etish vositasi hisoblanadi.

Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslar inson huquqlarini himoyalash, jumladan, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan islohotlar manbayi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadiga, ya’ni ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga zamin yaratib bermoqda.

Dilafruz SUFIYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Xalqaro reytinglar va indekslar bilan
ishlash boshqarmasi boshlig‘i

[3] https://gender-data-hub-2-undesa.hub.arcgis.com/indicators.
[4] https://hdr.undp.org/data-center/thematic-composite-indices/gender-inequality-index#/indicies/GII.
[5] https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index#/indicies/HDI.
[6] https://www.genderindex.org.
[7] https://www.weforum.org/reports/global-gender-gap-report-2022.